

MARKAZIY OSIYODA ANKLAV HUDUDLAR HOLATI VA ISTIQBOLLARI

T.B.Abdullayeva

*Yoshlar muammolarini o'rganish va istiqbolli
kadrlarni tayyorlash instituti doktoranti,
takhmina.abdullaeva02@gmail.com*

Annotasiya: Ushbu maqolada Markaziy Osiyoda anklavlarning shakllanishi masalasi tahlil qilinadi. Maqolada bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri talqin etilgan. Ushbu jarayonga muallif tomonidan baho beriladi hamda muammoalarni hal etish uchun yechimlar taklif etiladi.

Kalit so'zlar: anklav, Markaziy Osiyo, bahsli hududlar, anklavlarning shakllanish tarixi, Markaziy Osiyoda hududlar muammosi.

STATE AND PROSPECTS OF ENCLAVES IN CENTRAL ASIA

Abstract: The enclaves one of the factors that complicate the positive development of relations between neighboring Central Asian countries. This is because of position's contradictions of the parties in modern attempts to identify location of state borders around enclaves. In this paper the author estimates the process of forming enclaves in Central Asia and offers recommendations for solving problems.

Keywords: Enclaves, Central Asia, history of formation of enclaves, problem solving, disputed territories.

Markaziy Osiyo mamlakatlarining zamonaviy tarixida davlat chegarasining delimitasiya masalasi alohida o'rin tutadi. Taxminan chorak asrdan beri davom etayotgan muzokaralar shuni ko'rsatdiki, ushbu jarayondagi eng murakkab vaziyat anklavlarda hududiy chegara chizig'i bo'yicha kelishuvga erishish hisoblanadi.

Farg'ona vodiysidagi anklavlar Sovet davrining merosi deyiladi. 1920 yillarning o'rtalarida vodiy hududi Qirg'iziston, O'zbekiston va Tojikiston o'rtasida bo'lib olindi hamda ular hududiy va etnik muammolarni meros qilib olishdi. Vodiya jami sakkizta anklav hudud mavjud. Ularning aksariyati Qirg'izistonda joylashgan bo'lib, unda to'rtta o'zbek va ikki tojik anklavi joylashgan. Eng yirik o'zbek anklavlari - So'x va Shohimardon hisoblanadi. Tojikistonning eng yirik anklavi - Vorux bo'lib, Tojikistonning So'g'd viloyati bilan ma'muriy aloqalar yo'lga qo'yilgan. So'x anklavi Markaziy Osiyo va dunyodagi eng yirik mintaqalardan biri hisoblanadi. O'zbekiston uchun So'x, Qirg'iziston uchun esa Barak ekslavdir (boshqa davlat hududida boshqa mamlakat qismi joylashishi).

Anklavlardagi chegara muammolarini hal etib bo'lmaganining sababi, post-sovet davrida ochiq qurolli to'qnashuvlarning keskin tus olganligi edi. Bundan tashqari, so'nggi paytlarda Qirg'izistonning chegarasida muamolari O'zbekiston bilan emas, balki Tojikiston bilan bo'lgan vaziyatlarda jiddiylik kasb etadi.

Qirg'iziston va O'zbekiston o'rtasida ochiq qurolli to'qnashuvlar sodir bo'lmagan bo'lsada, chegaralar yopilishi ko'p uchrab turardi. 2013 yil yanvar oyida So'x anklavi hududida Qirg'iziston harbiy kuchlari uchun elektr liniyasi qurilishi sababli ziddiyatlar kelib chiqdi.

Ularning ko'pchiligi 2013 yilda sodir bo'lgan bo'lib, unda davlatlar aholisi va chegarachilari o'rtasida to'qnashuvlar bo'lgan. Shu bilan birga ularning asosiy qismi anklavlarning chegara hududlari bilan bog'liq vaziyatlardir. 2017 yilda Qirg'iziston Tojikiston va O'zbekiston bilan chegarasida 14 ta to'qnashuv yuz berdi, hamda bu holat 2018 yil boshigacha davom etdi. [1]

Anklavlarda chegara hududlarini belgilash borasida yuzaga kelayotgan qiyinchiliklar 1924 yil iyul oyida boshlangan hamda SSSRning qulashigacha davom etgan milliy-hududiy bo'linish davrida ma'muriy chegaralarni shakllantirishning murakkab tarixi bilan bog'liq.

SSSR tashkil etilgandan so'ng, katta qismi Turkiston avtonom Sovet Sosialistik Respublikasi tarkibiga kiruvchi Markaziy Osiyoning haqiqiy vaziyatni 1924 yilda SSSR Markaziy Ijroiya Qo'mitasining 2 chaqiriq, ikkinchi sessiyada K.Atabayev quyidagicha tavsiflaydi: "Turkistonda Sovetlarning boshqaruvi doimiy ikkilanishga moyil bo'lib, bu qilinayotgan ishlarning foydali tomonlarini to'xtatib qo'ymoqda. Bir millat ichidagi xo'jalik ishi boshqasiga zarar yetkazmoqda, antogonizmni kuchaytirmoqda, bir guruh taklifining boshqalariga ta'siri o'ta murakkab milliy kombinasiyalar bilan bog'liq". [2]

Qirg'iz-o'zbek chegarasining delimitasiyasi uzoq vaqt davomida anklavlar muammosi tufayli oxiriga yetmay keldi. Ushbu muammoni hal qilish borasidagi faol harakatlar 2016 yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev boshchiligida amalga oshirila boshlandi. Prezident Shavkat Mirziyoyev Qirg'iziston sobiq prezidenti Almazbek Atambayev bilan chegaraning 85 foizini demarkasiya qilishga kelishib oldilar. Ammo qolgan 15% juda uzoq vaqt davomida muzokara qilinishi kerak bo'lgan eng murakkab hududlar hisoblanadi.

Qishloq boshlig'i Burkanbek Ashirov bu ma'lumotlarni tasdiqladi va qishloqdagilar ko'chishga qarshi emasligini aytib o'tdi. U O'zbekiston Barak evaziga beradigan yerga Barak aholisi borishini aytdi. "Biz Barakni tark etishga qaror qildik. O'zbekiston Andijon viloyatining Qo'rg'ontepa tumanidagi, sharqdan Oq-Tosh va janubdan Qashqar-Kishtaq bilan chegaradosh Birlashgan qishlog'ini bizga beryapti. Ular bizning yerimizga teng miqdorda yer berishga qaror qilishdi. Biz ham, qolganlar

ham xursand. Men ham bu hududni o'lashda ishtirok etdim", - deydi Ashirov. Biroq, bu ko'chirilish tezda amalga oshmasligini ham aytib o'tish kerak. Komissiya jarayonni ikki yilda amalga oshiriladi.

1-jadval Markaziy Osiyodagi anklavlar: aholisi va etnik tarkibi [3]

Anklav	Davlati	Joylashgan davlati	Aholisi	Etnik tarkibi
Barak	Qirg'iziston	O'zbekiston	900	100% qirg'izlar
Chonqara	O'zbekiston	Qirg'iziston	0	-
Jangail	O'zbekiston	Qirg'iziston	0	-
Sarvak	Tojikiston	Qirg'iziston	400-2500	99% o'zbeklar 1% tojiklar
Shoximardon	O'zbekiston	Qirg'iziston	10000	91% o'zbeklar 9% qirg'izlar
So'x	O'zbekiston	Qirg'iziston	74000	99% tojiklar 1% qirg'izlar
Vorux	Tojikiston	Qirg'iziston	40000	95% tojiklar 5% qirg'izlar
Qayrog'och	Tojikiston	Qirg'iziston	150	100% tojiklar

Anklavlar ikki davlatga va ulardagi aholiga ham katta muammolar olib keladi. Milliy xavfsizlik, hududiy birlik, harakatlar erkinligi va iqtisodiy holat ushbu mojarolar sabab cheklanishga uchraydi. Farg'ona vodiysidagi chegaralarni bo'lishdagi tarixiy noaniqliklar sababli Markaziy Osiyodagi davlatlar o'rtasida chegaralarni demarkasiya qilish jarayonini amalga oshirish uchun bir necha yillar talab etildi. Shularni hisobga olgan holda, aniq, tizimli, professional muzokaralar olib borilishi kerak.

Anklavlar huquqiy birlik sifatida mavjud bo'lib, Farg'ona vodiysida joylashgan anklavlarda anklav aholisining erkin ko'chib yurishini ta'minlash anklavlar ichida iqtisodiy taraqqiyot hamda davlatlar o'rtasidagi ikki tomonlama munosabatlarda qulaylik yaratadi. Yo'lak rejimini amalga oshirish ehtimoli kamroq bo'lsada, anklavlarda tinch hayotni ta'minlash mumkin; ular muammolar va tahdidlarga duch kelmasliklari kerak. Ushbu fikrni inobatga olgan holda, Markaziy Osiyo anklavlaridan sayyohlik yo'nalishi (sayyohlarni jalb qilish) sifatida foydalanish ham mumkin. Bu usul anklav hududlar iqtisodiyotini rivojlantirishga yordam beradi, anklavlar aholisini agrissiv darajasini pasaytiradi. Anklav hududlarning davlat, atrof-muhit va boshqa anklav o'rtasidagi munosabatlari ko'p qirralidir. Har bir tomon o'z manfaatlarini himoya qiladi va ba'zida bu manfaatlar bir-biriga yaqinlashadi va boshqa paytlarda bir-biriga zid keladi. Umuman olganda, jahon amaliyotida anklavlar masalasiga oqilona yechim - davlatlar orasidagi **muzokaralar o'tkazish** yoki chegaralardan anklavlar aholisi va mehmonlar kesib o'tishini osonlashtirish bilan cheklanib qolgan. Shunday qilib, ishtirokchi davlatlar (Qirg'iziston, Tojikiston va O'zbekiston) o'rtasidagi munosabatlar anklavlarning ikki tomonlama munosabatlariga ta'sirini kuchaytiradi va vaziyatni ijobiy tomonga o'zgartirishga yordam berishi mumkin. Turli etnik guruhlar

asrlar davomida yashab kelgan, suvini, yaylovlarini bo'lishgan hududlar uchun chegaralar o'rnatish har doim ham muqobil yechim bo'la olmaydi.

Anklavlarga ega davlatlar anklav aholisining talab va istaklarini eshita olishi kerak. Yechilmay qolayotgan va e'tibordan chetda qolgan muammolar anklav aholisini har qanday huquqiy himoyaga nisbatan ishonchsizligini keltirib chiqaradi, individual harakat qilishga undaydi, "adolat uchun kurashishga" olib keladi. Biz bunday holatlarga Voruh, So'x va Barakda duch kelganmiz.

Markaziy Osiyo Respublikalari o'rtasida kelib chiqayotgan chegara muammolari o'ziga xos bo'lib, u hatto xorijiy tadqiqotchilarning ham e'tiborini tortmoqda. Masalan, 1995 yildan beri Nyukasl universiteti geografi Nik Megoran hozirgi vaziyatni o'rganib kelmoqda. 2017 yilda u Markaziy Osiyo anklavlarining muammolarini hal etishni uchta yechimini taklif etdi: hududlar almashinuvi, chegaralarda anklavlarga o'tish yo'laklarini tashkil etish va chegara hududida erkin harakatni joriy etish kabilar.

Hududlarni almashtirishni faqat kichik anklavlarga nisbatan katta qiyinchilik bilan bo'lsada, amalga oshirish mumkin. Anklavlardan mamlakat hududiga o'tish uchun yo'laklar barpo etish katta sa'y-harakat va xavfsizlik choralarini talab qiladi. Eng yaxshi yechim - chegara hududlarida maxsus tartib joriy etilish va mahalliy aholiga chegaraning har ikki tomonida erkin harakatlanishiga imkon berishdir

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Protokol №7 zasedaniya plenuma SrednetAziatskogo Likvidasionnogo Komiteta ot 17 marta 1925 g. SGAO SSSR, f. 1235, op. 120, d.32, l. 8-9.
2. Alamanov S, Umetaliyeva A. Transgranichnyye konflikty. Almanax "Opyt Кыргызskoy Respubliki v upravlenii krizisnymi situatsiyami" Jeneva-Bishkek-Riga-Sofiya, 2014, str. 115-195.
3. www.enclaves.webs.com/centralasia.